

MANG‘IT QABILALARINING KELIB CHIQISHI TARIXI

Davlatboyev Sarvar Hamdam o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: davlatboyevsarvar8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan, Buxoro amirligining tashkil topishida asosiy ro‘l o‘ynagan mang‘it qabilalarining kelib chiqishi ma‘umotlari tahlil qilinadi. Tahliliy ma‘lumotlar va yangicha qarashlar mang‘it qabilalarining kelib chiqishi tarixiga doir ma‘lumotlari yanada kengayishi va boyishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Mang‘it, Buxoro amirligi, Dashti Qipchoq qabilalari, Shayboniylar sulolasi, Nog‘aylar, Borjigin avlodlari, Turk-mo‘g‘ul ildizlari, Hojitarxon, Etnogenez jarayoni, Qabilaviy siyosat, Genealogik rekonstruksiya, Ko‘chmanchi hayot tarzi, O‘zbek qabilalari, Manghud sub-qabilalar.*

ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ ПЛЕМЁН МАНГЫТОВ

АННОТАЦИЯ

В этой статье будут проанализированы данные о происхождении мангытских племен, сыгравших важную роль в истории узбекской государственности и сыгравших ключевую роль в становлении Бухарского эмирата. Аналитические данные и новые взгляды послужат дальнейшему расширению и обогащению сведений по истории происхождения мангытских племен.

Ключевые слова: *Мангыты, Бухарский эмират, степные кипчакские племена, династия Шибанидов, ногайцы, потомки Борджигина, тюрко-монгольские корни, территория хаджитархана, процесс этногенеза, племенная политика, генеалогическая реконструкция, кочевой образ жизни, узбекские племена, мангуд субкланы.*

THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE MANGHIT TRIBES

ABSTRACT

This article analyzes the origins of the mangyite tribes, who played a significant role in the history of Uzbek statehood, the main role in the formation of the Emirate

of Bukhara. Analytical data and novel views serve to further expand and enrich the history data of the origin of the mangit tribes.

Keywords: *Manghit, Bukhara emirate, Dashti Kipchak tribes, Shibanid dynasty, Nogais, Borjigin descendants, Turkic-Mongol roots, Hojitarkhan territory, ethnogenesis process, tribal politics, genealogical reconstruction, nomadic lifestyle, Uzbek tribes, Manghud sub-clans.*

KIRISH (Introduction).

Mang'itlarning kelib chiqishi haqida turli manbalar bisyor ammo o'sha manbalar bir biridan farqli tomonlari mavjud. Maqola maqsadi shuki, mang'itlar to'g'risidagi ko'plab manbalarni tahlil qilib ularni kelib chiqishini yanada batafsil yoritish va qo'shimcha qo'llab-quvvatlovchi firklar bildirishdan iborat. Mavzu dolzarbligi asosan tarixchilar uchun, nafaqat Buxoro amirligi tarixini o'rganishga kirishgan har bir shaxs uchun ushbu davlatga asos solgan qabila va xalqni oson o'rganish hamda yagona yakdil fikriga ega bo'lishi uchun tadqiq qilinadi. Maqola ilmiy ahamiyati shuki ko'pgina tarixchi akademik va professorlar asarlari tahlil qilinib, ularga asoslangan holda qo'shimcha qo'llab-quvvatlovchi takliflar berilib, uni jamiyatning xohlagan qatlami ya'ni ilmga chanqoq insonlar uchun oson, tez va samarali yakdik ma'lumot bergan holda, tarixiy xotirani yanada mustahkamlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (Literature review).

Mang'it qabilalarining kelib chiqishi to'g'risida ko'plab manbalar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi mang'itlarni kelib chiqishini mo'g'ul qabilalariga bog'lashadi. Ba'zi adabiyotlarda mang'itlar mo'g'ul qabilasi sifatida XIII asr boshlarida tilga olinadi(2, 486-bet). Ular XIII asrda asosan Dashti Qipchoqda yashaganlar. Yana boshqa manbalar ham yuqoridagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi. Mazkur masalaga oid mavjud ko'plab shajaralar mang'itlarni mo'g'ullarning afsonaviy bo'richigin urug'iga, ya'ni bevosita Chingizxonga bog'laydilar (11, 31-bet). Ushbu manbada mang'itlar Mo'g'iliston hududida yashab, XIII asr boshlarida Chingizxonning yurishlari chog'ida Dashti Qipchoqqa kelganligini yozadi. Mang'itlarning Chingizxonga bog'lanishlari, mazkur urug' vakillarining hokimiyatni egallashiga qonuniy asos qilib ko'rsatishga harakat deb bilish mumkin. Yana boshqa bir akademik V. Bartold, mo'g'ullar davridan Mang'it nomi turkiy yoki turkiylashgan xalqlar nomi sifatida tilga olingan(3, 556-bet). Bu ma'lumot yuqoridagi manbalar ma'lumotlarini inkor qiladi. Sababi Bartold mang'itlarni mo'g'ullardan emas balki mo'g'ul davridagi manbalarda mang'itlar nomi uchraganini ta'kidlayapti. XIV asrda (1307-1316-yillar) yozilgan Rashid ad-Dinning "Jami at-Tavarix" (Tarixlar jamlanmasi yoki Tarixlar

to‘plami) asarida u shunday yozadi: Manghudlar (Manghitlar) Borjigin sulolasining a‘zolari tomonidan asos solingan qadimgi mongol qabilalaridan biridir(9, 412-bet). Borjigin o‘z navbatida Chingizxon va uning bevosita avlodidir. Aynan ushbu Bo‘rijigin sulola a‘zolari boshqa o‘zining sub-qabilalarini yaratganlar, bular qatorida: barlas, urad, manghud (manghit), taichiut, chonos, qiyat singarilarga asos solganlar. Demak bundan ma‘lumki mang‘itlar Chingizxon avlodlari tomonidan asos solingan hamda mang‘itlar kelib chiqishini biz bevosita mo‘g‘ullarga bog‘lashimiz mumkin. “Encyclopaedia Iranica” to‘plamida turk-mo‘g‘ul qabilalari o‘zlarini mang‘itlar deb ataganlari keltirilgan bo‘lib, ular Oltin O‘rda davrida muhim rol o‘ynagan.(4) Asosan Dashti Qipchoqda ko‘chmanchi chorvador sifatida yashashgan va XVI asrdan boshlab qisman Qrim xonligiga va Shimoliy Kavkazga ko‘chib o‘tganlar, shuningdek Shayboniylar sulolasi bilan birga Amudaryo bo‘ylari va Xorazmga o‘rnashganlar(10, 417-418- betlar). Keyingi manba Fazlulloh ibn Ruzbehon Xunjining “Mehmonnomayi Buxoro” asari bo‘lib, ushbu manba Shayboniylar davri(XVI-XVII asrlar) haqida ma‘lumot beradi. Ushbu manbada uch turkiy-o‘zbeklarning 3ta asosiy guruhga bo‘ladi: shayboniylar – Buxoro va uning atrofidagi hukmron qabila; qozoqlar – qudrati va shijoati bilan mashhur qabila; mang‘itlar (manfit) – Hojitarxon (Astraxan) hududida hukmron qabila sifatida tilga olinadi(5, 260-bet). Bu ma‘lumot bizga mang‘itlarning dastlabki siyosiy mavqeyi va etnik kelib chiqishini ko‘rsatadi. Xunji ularni o‘zbeklarning bir qismi sifatida ko‘rsatadi, shuningdek ularning Astraxan hududidagi hukmronlik rolini ta’kidlaydi. Shuni aytish joizki keyingi tarixchilar (masalan Abul G‘oziy Bahodirxon) va zamonaviy tadqiqotchilar Xunji ma‘lumotlarini ishlatib, mang‘itlarning kelib chiqishi va Buxoro amirligi tarixidagi rolini tahlil qiladilar. 1260-yili yozib tugallangan Minhaj al-Siraj Juzjoniyni “Taboqoti Nosiriy” asarida hamda mang‘itlar haqida ko‘plab ma‘lumotlar uchraydi. Juzjoniyni asarida Shamsi sulolasiga mansub bo‘lgan Mang‘itlar haqida quyidagi ma‘lumotlarni yozadi: “Shamsi sulolasi, Iltutmishdan keyin, Hindistonda hokimiyatni qo‘lga kiritadi. Ularning orasida mang‘itlar ham bor”(7, 229-bet). Bu ma‘lumotdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mang‘itlar XIII asrdayoq siyosiy maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘la olgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek Vasiliy Bartold mang‘itlarni turkiy tilda so‘zlashadigan qabila sifatida aytib o‘tgan bo‘lsa unga tamomila qarma-qarshi fikrni Grigoriy Grumm keltiradi. U mang‘it qabilalari turkiy emas balki mo‘g‘ul tilida so‘zlashadigan qabila sifatida tilga oladi. Professor Norali Norboev o‘zining “O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida” nomli risolasida mang‘it qabilalarini quyidagicha tariflaydi: “Tumnaxonning eng katta o‘g‘li Choksunning uchta o‘g‘li bor edi: To‘yokin, urut va Manqit (Mang‘it) bo‘lib, barcha mang‘it urug‘i shu kishining naslidir” deb yozib o‘tgan(8, 37-bet). Mang‘it aslida Mankut bo‘lib

qutli barakali bo'lsin degan ma'noni anglatgan. Ko'p yillar Oltin O'rdada, Xorazmda, Qrimda hokimiyatni o'z qolida saqlagan Amir Edigey oq mang'itlardan edi. Amir Temur Oltin O'rdani egallagandan keyin bu urug'dan juda ko'p xonlar yetishib chiqqan. Mang'it urug'i amirlari doimiy ravishda Chig'atoy, ya'ni Movarounnahr amirlari bilan aloqada bo'lib kelganlar. Idukibiy mang'it O'rusxon(Oltin O'rdada 1375-1376-yillar hukmronlik qilgan)dan qochib sohibqiron Amir Temurdan najot so'rab keladi. Mang'it hukmdorlar Edigey va Isobeklar hamda Amir Temur va Shohruhlr o'rtasida elchilik aloqalari olib borilgan. Bundan ma'lumki yuqoridagi manbalarni katta ko'pchiligi mang'itlarning kelib chiqishini xuddi mo'g'ullar bilan bir vaqtga ya'ni XIII asrga oid deb tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Mazkur tadqiqotda Mang'itlar qabilasining kelib chiqishi va tarixiy shakllanishini ilmiy asosda yoritish uchun bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalaniladi:

a) Avvalo, tadqiqotning asosiy maqsadi mang'itlar qabilasining kelib chiqishi, etnik ildizlari, tarixiy shakllanish jarayonlari va ularning siyosiy hamda madaniy hayotdagi rolini aniqlashdir. Tadqiqot tarixiy-etnografik va tarixiy-komparativ(qiyosiy) yondashuvlarga asoslanadi.

b) Ikkinchidan, manbalarni yig'ish va ma'lumotlarni tahlil qilish joiz. Bunda birinchi darajali manbalar: Rashididdin, Juvayniy, Juzjoni, shuningdek, arab va fors tarixchilari asarlari; ikkinchi darajali manbalar: V.Bartold, G.Grumbach, G.Grimmaylo, R.Grousset, Sh.Vohidov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari; uchinchi darajali manbalar: arxiv materiallari va qo'lyozmalar.

c) Uchinchidan, qiyosiy tarixiy tahlil natijalari: mang'itlar boshqa mo'g'ul qabilalari - barlos, qiyot, jaloyir, nayman va boshqalar bilan qiyosiy tahlil qilinganda, geneologik jihatdan o'xshashliklar kuzatiladi. Biroq mang'itlar chingiziy nasabga bog'lanmagan, shuning uchun siyosiy legitimatsiya uchun boshqa asos — islomiy "Amir" unvonidan foydalangan. Bu jihat ularni boshqa qabilalardan farqlab, Buxoro tarixida alohida o'rin egallashlariga sabab bo'lgan.

d) To'rtinchidan, siyosiy shakllanish va davlat tuzilmalaridagi o'rni. XIV asrda mang'itlar Dashti Qipchoqda siyosiy kuch sifatida yuzaga chiqib, No'g'ay o'rdasining shakllanishida asosiy o'rin tutgan. XV–XVI asrlarda ular ko'proq o'zbek urug'lari tarkibiga singib ketgan bo'lsa-da, o'z mustaqil siyosiy mavqeyini ham saqlab qolgan. 1785-yilda esa Buxoro amirligida Mang'itlar hukmron sulola sifatida siyosiy sahnaga chiqib, markazlashgan davlat tuzilmalarini barpo etishda faol qatnashgan.

e) Beshinchidan, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar: etnografik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, mang'itlar mo'g'ul ildizdan kelib chiqqan bo'lsalar-da, turkiy muhitda shakllangan madaniyat va urf-odatlarini o'zlashtirishgan. Ularning ijtimoiy hayotida chorvachilik, ko'chmanchi turmush tarzi hamda islom dini asosiy birlashtiruvchi omil bo'lgan. Shuningdek, mang'itlar o'z tarixiy taraqqiyotida ham mo'g'ul, ham turkiy madaniyat unsurlarini sintez qilgan qabila sifatida shakllangan.

XULOSA (Conclusion).

O'rganilgan tarixiy manbalar, ilmiy adabiyot va maqolalar va qiyosiy tahlillar natijasida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1) Mang'itlarning etnik kelib chiqishi ildizlari: Mang'it qabilasi dastlab mo'g'ul qabilalari tarkibida deya ko'rsatilgan bo'lsada, vaqtlar o'tishi bilan ular Dashti Qipchoq hududida turkiy muhitga kirib kelib, asta-sekinlik bilan turkiylashib boshlagan. Shuning uchun ham tarixiy, ham etnografik asarlarda ularni bir paytning o'zida ham mo'g'ul ham turkiy kelib chiqishga mansub deya deb hisoblanadi. Bu o'z navbatida ko'p qatlamli etnogenez jarayonidan dalolat beradi va ularning kelib chiqishini keng ma'noda ochib beradi.

2) Mang'itlarning siyosiy jarayonlardagi o'rni: XIII–XV asrlarda ular Oltin O'rda tarkibida muhim harbiy-siyosiy kuch bo'lib maydonga chiqqanlar hamda markaziy maydonda yetakchilikni qo'lga ola boshladilar. Keyinchalik No'g'ay ulusida yetakchi qabilalardan biriga aylangan. Bu davrda mang'itlar nafaqat harbiy salohiyati, balki iqtisodiy jihatdan ham ta'sir kuchiga ega bo'lganligi kuzatiladi. Ularning mavqeyi shu tarqiga ortib borib, mintaqada yetakchi qabilalar qatorida turishini ta'minlaydi

3) Buxoro xonligi va Buxoro amirligi davrida: XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, mang'it urug'idan chiqqan Muhammad Rahim va Doniyolbiy kabi shaxslar Buxoro taxtini egallash orqali sulolaviy darajaga ko'tarildi. Shu tariqa ular oddiy qabila vakillaridan markazlashgan davlat hukmdorlariga aylanish jarayonini bosib o'tganlar. Keyingi hukmdorlar va ularning siyosati mamlakatning siyosiy nufuzini oshirib qolmasdan, balki yetakchi davlatlar bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. XIX asrda Buxoro amirligi mang'itlar sulolasi tomonidan boshqarilganligi ularning tarixiy taqdirida muhim burilish bo'ldi.

4) Madaniy va ijtimoiy integratsiya: Mang'itlar O'rta Osiyo xalqlari bilan aralashib, o'zbek xalqining shakllanish jarayonida faol qatnashdi. Ularning nomi nafaqat siyosiy tarixda, balki xalq og'zaki ijodi, an'anaviy madaniyatida ham o'z o'rnini topgan.

5) Ilmiy natijaning umumiyliigi: Mang'itlarning kelib chiqishi masalasida turli qarashlar mavjud bo'lsa-da, asosiy jihat shuki, ular dastlab mo'g'ul ildizga ega

bo'lib, keyinchalik turkiy muhitda shakllangan va mustaqil etnik-siyosiy birlik sifatida tarixda muhim rol o'ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (References)

1. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent: Fan nashriyoti, 1992. – 260 b.
2. Asqarov, A. Etnogenez va o'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent: Fan, 2019. – 486 b.
3. Бартольд В.В. Сочинения. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва: Наука, 1968. – С. 556 .
4. Encyclopaedia Iranica. "Manghit" Nyu-York: Columbia University, 2003.
<https://www.iranicaonline.org/articles/manghits/>
5. Fazlalloh ibn Ruzbihon Xunji. Mihman-nama-i BuxoroTehran: Nashr-i Markazi, XVI–XVII asr. 1976. – P. 260.
6. Грумм-Гржимайло, Г.Е. Западная Монголия и Урянхайский край. Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии Наук, 1902. – Том II. – С. 478.
7. Juzjani, Minhaj ad-Din. Tabaqat-i Nasiri. Kalkutta: The Asiatic Society, 1864. – P. 229.
8. Norali Norboev. O'zbek elining qabila va urug'lari haqida. Toshkent: 1997. – 37 b.
9. Rashid ad-Din Fazlulloh. Jami' al-Tavarih. Tehran: Nashriyoti Elmi, 1307–1316. 1957. – P. 412.
10. Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. Москва: Восточная литература, 2002. – С. 417-418.
11. Zamonov A., Egamberdiyev A. O'zbek xalqi va uning ildizlari. – Toshkent: Sharq, 2022. – 31 b.